

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH KAFEDRASI

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH FANIDAN

Farmatsiya fakulteti 3-kurs talabalari uchun

MA'RUZA MATNLARI

TOSHKENT – 2016

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektori
dotsent S.U.Aliyev
“ ”

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH FANIDAN
“O'zbekiston Respublikasida Sog'liqni saqlash ishlari va farmatsevtika
xizmatini rivojlantirish asoslari
Farmatsiya fakulteti 3-kurs talabalari uchun

MA'RUZA MATNLARI

Tuzuvchi: dotsent, b.f.n Xidoyatova Z.Sh.

Taqrizchilar:

Fayzullaeva N.S. – dori turlari
texnologiyasi kafedrası dotsenti
Aripov Sh.T. “DVSIM” qoshidagi
sertifikatlashtirish idorasi yetakchi
mutahasisi, ekspert-auditor

Ma'ruzalar matni Farmatsevtika instituti talabalari uchun tasdiqlangan namunaviy
dastur asosida tuzilgan

Markaziy uslubiy kengash 2016 yil _____ - sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Toshkent farmatsevtika instituti
Ilmiy kengashi

“_____” 2016 yil _____ sonli bayon asosida tasdiqlangan.

M U N D A R I J A

Mavzular:

Mashg'ulot mavzulari

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash ishlari va farmatsevtika xizmatini rivojlantirish asoslari
2. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi. Dorixona muassasalariga farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya berish.
3. Turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar ishini tashkil qilish
4. Dori vositalari retseptsiz savdosini tashkil qilish
Dorixonalarda retseptura bo'limi ishini tashkil qilish. Dorixonalarda
- 5 retseptlarni qabul qilish, retseptlarning taksirovkasi. Dorixonalarda retseptlarni ekspertiza qilish va dori vositalarini berish
- 6 Dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash. Dorixona sharoitida tayyorlangan dori vositalarini sifatini nazorat qilish ishlarini tashkil qilish
11. Dorixona zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish. Laboratoriya qadoqlash ishlarini hisobga olish.
12. Farmatsevtika xizmatini nazorat ruxsatnoma tizimi.
- 13 Davolash profilaktika muassasasining dorixonasi
- 14 Dori vositalariga bo'lgan ehtiyoj va talab istiqbolini aniqlash.
- 15 Farmatsevtik logistika tizimi. Farmatsevtika bozorida ulgurji savdo faoliyatini tashkillashtirish.
- 16 Dorixonada giyohvand dori vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar muomalasi.
- 17 Markaziy Osiyo va MDX davlatlarida farmatsiyaning rivojlanish tarixi.

**Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasida Sog‘liqni saqlash ishlari va
farmatsevtika
xizmatini rivojlantirish asoslari”**

Reja

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20 may 2005 yildagi № 131-sonli qarori. (“Dori-darmon” davlat aksiyadorlik uyushmasining “Dori-darmon” aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to‘g‘risida)
2. “O‘zFarm sanoat” davlat aksiyadorlik konserni va uning vazifalari.
3. Xususiylashtirish yillarida O‘zbekiston.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasida faoliyat kòrsatayotgan “Dori-darmon” davlat aksiyadorlik uyushmasi Dori-darmon aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi. Bu xaqda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 20 may 2005 yildagi № 131-sonli qarorida ta‘kidlab òtilgan.“Dori-darmon” aksiyadorlik kompaniyasining vazifalari:

-O‘zbekiston respublikasi aholisini sifatli dori-darmon va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash;

-marketing tadqiqotlari o‘tkazish hamda hayotiy muhim bo‘lgan asosiy dori-darmonlar va tibbiyot buyumlariga shu jumladan narkotik va hisobda turadigan psixotrop preparatlarga buyurtmalarni shakllantirish hamda tuziladigan shartnomalar asosida Respublika Sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarining ularga bo‘lgan ehtiyojini ta'minlash;

-O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha davlat rezervining dori-darmonlar va tibbiyot buyumlariga ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash;

-“Dori-darmon” aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan dorixona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish mavjud farmatsevtika mahsulotlari resurslari to‘g‘risidagi yagona respublika axborotlar tizimini yaratish:

-Dori-darmonlar va farmatsevtika preparatlari bilan ta'minlashni tashkil etishga investitsiyalarni jalb qilish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish.

Ambulatoriya va statsionar sharoitida davolanadigan bemorlarga tibbiy yordamini tashkil etish profilaktika va diagnostika tadbirlariga uzviy ravishda yuqori sifatli dori

vositalarining ishlatilishiga va ular bilan ta'minlash darajasiga bog'liqdir. Sanoat va ta'minot tizimidan aholi va davolash - profilaktika muassasalariga dori vositalarini etkazib beruvchi bo'g'in sifatida farmatsevtika soxasi xizmat ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash va farmatsevtika xizmati ustidan umumiy raxbarlikni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi. Sog'liqini saqlash sohasini har tomonlama rivojlantirish sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'ini va moddiy –texnika bazasini rivojlantirish, tibbiyot va farmatsevtika kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, tibbiyot va farmatsevtikaning turli soxalarida ilmiy ishlar o'tkazishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun vazirlik qoshida, maxsus bosh boshqarmalar, ilmiy - tadqiqot institutlari va boshqa bo'linmalar faoliyat ko'rsatadi. Shu jumladan, Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi tuzilib, uning tarkibida farmakologiya va farmakopeya qo'mitalari, dori vositalarini standartlash va ekspertiza o'tkazish markazi, dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qiluvchi farmatsevtika inspeksiya, dori vositalarini standartlash va sifatini nazorat qilish laboratoriyasi faoliyat ko'rsatadi.

Aholi va davolash-profilaktika muassasalarining dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, dori darmonlar ta'minoti boshqarishini markazlashtirish farmatsevtika sanoatini barpo etish va rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 17 iyuldagi 296 –qarori bilan “O'zfarmosanoat” davlat-aksiyadorlik konserni tuzildi.

“O'zfarmosanoat” konserning vazifalari quyidagilardan iborat:

- dori-darmonlarni yaratish va ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish, aholi va davolash-profilaktika muassasalarini dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish;

- hukumatning respublika va mahalliy organlari bilan hamkorlikda farmatsevtika sanoati kompleksini rivojlantirish bu tarmoq korxonalarni xududiy joylashtirishni takomillashtirish, tabiatni muhofaza qilish siyosatini o'tkazish;

- Sog'liqni saqlash vazirligi boshqa vazirliklar va tashkilotlar bilan birgalikda yuqori samarali dori vositalarini va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish sohasida yagona siyosatini amalga oshirish;

- dorivor preparatlarni respublikaning o'zida ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish hisobiga ularning importini kamaytirish, xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish va kengaytirish dasturini ishlab chiqish hamda uni izchil amalga oshirish;

- konsern o'z vazifalarini bajarish uchun unga berilgan vakolatlarga muvofiq, quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

- konsern tarkibiga kiruvchi birlashmalar, korxonalar, tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirish;

- tarmoqni iqtisodiy ijtimoiy rivojlantirish, uzoq muddatsiz istiqbol rejalarini, korxonalarni rivojlantirish, qayta qurish va texnika bilan qayta jihozlash vazifalarini hal qilish uchun investitsiya sohasida yagona strategiyani amalga oshirish;

- boshqarish jarayonini xo'jalik usullarini va shakllarini takomillashtirish, korxona hamda tashkilotlarda xo'jalik hisobini rivojlantirish;

- ishlab chiqarishning oqilona ixtisoslashuvini va koorperatsiyalashuvini o'tkazish, bozor konyunkturasini o'rganish hamda uning asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ko'rsatiladigan xizmatlar tarkibini takomillashtirish, iqtisodiy aloqalarning yangi shakllarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish;

- xom ashyo bazasini jadal rivojlantirish tibbiyot resurslaridan kompleks foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish, tarmoqlararo ekologik dasturlarni xal qilishda ishtirok etish;

- korxonalar va tashkilotlar tomonidan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan hamda chet ellardan keltirilgan dori vositalari sifatini belgilab beruvchi davlat standartlariga rioya qilishni nazorat qilish;

- birinchi marta ishlab chiqarilgan dori preparatlarini tanlab nazorat qilish;

- bank-kredit xizmatini tashkil etish, konsern va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarning iqtisodiy potentsialini mustahkamlash vositasi sifatida daromad olishni ta'minlashga qaratiladigan yagona tijorat va moliya sifatini yurgizish;

Xususiylashtirishning boshlarida O'zbekistonda 2552 ta davlat dorixonalari mavjud edi.

1994 yil oxiriga kelib, 352 ta shifoxonalararo dorixonalar, 239 ta aksiyador dorixonalar, 290 ta jamoa dorixona muassasalari va 1059 ta xususiy dorixona tashkil

topgan. 1994 yildan 2001 yillargacha yangitdan 2622 ta xususiy dorixona, 565 ta filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

2002 yil 1 yanvarga kelib farmatsevtik faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan xususiy shaxslar miqdori 3945 taga etdi, shu jumladan ishlab chiqarish korxonalari – 61 ta, ulgurji korxonalar – 17 ta, dorixonalar – 3712 ta, dorixona filiallari – 1286 taga etdi.

Birlashma ochiq turdagi aksiyadorlik jamoati tarzida tashkil etiladi. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, aksiyadorlik tuman va shahar markaziy dorixonalar, dorixona muassasalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning jismoniy, yuridik shaxslari uning qatnashchilari hisoblanadi.

Birlashma viloyat aholisining dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish, hamda takomillashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Birlashma asosiy maqsadga erishish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

- aksiyadorlik jamoa dorixona muassasalari huquqlarini himoya qilishni ta'minlash davlat organlari va boshqa organlarda umumiy manfaatlarni ifodalash;

- bozor konyunkturasini tahlil qilish, marketing faoliyatini amalga oshirish;

- dori-darmonlar to'g'risidagi axborotning xududiy tizimini tashkil etish;

- dori-darmon va tibbiyot buyumlari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

- dorixona muassasalariga va ularning faoliyatiga uslubiy yordam ko'rsatish;

- aholining dori-darmonga va tibbiyot muassasalariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida pul mablag'lari (investitsiya)ni jalb qilish, dori-darmonlar savdosi ta'minoti tizimini takomillashtirish;

- aholini va davolash profilaktika muassasalarini dori-darmonlar bilan ta'minlanishni tashkil etilishi va tartibini, dori-darmonlar sifatini aksiyadorlik dorixona muassasalarida, jamoa va xususiy dorixonalarda kadrlarni malaka oshirishini nazorat qilish;

- birlashma ham respublikada, ham chet elda yuridik shaxslar va fuqarolar bilan o'z nomidan shartnomalar, kontrakt tuzadi;

- belgilangan tartibda iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi;

- milliy va chet el valyutasidagi kreditlardan foydalanish;

-uyushmalar konsernlar va boshqa birlashmalarga kiradi, xorijiy sheriklar bilan birgalikda tashqi bozorda eksport va import operatsiyalarini mustaqil amalga oshiradi.

- dorixona muassasalari aksiyalarini chiqaradi, ularni yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida tarqatadi.

Adabiyotlar

1. Yunusxo'jaev A.N. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati 1 kitob. Toshkent 2001 y.

2. Yunusxo'jaev A.N. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika faoliyati 3 kitob. Toshkent 2003 y.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20 may 2005 yildagi № 131-sonli qarori. ("Dori-darmon" davlat aksiyadorlik uyushmasining "Dori-darmon" aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to'g'risida).